

# **«SHARQ-U G'ARB: NAVOIY VA GYOTE»**

**mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari**

**Articles of international scientific-theoretical conference on**

## **«EAST AND WEST: NAVOI AND GOETHE»**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI  
O'ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI  
JAHON ADABIYOTI VA QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS OF  
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
ALISHER NAVAII TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK  
LANGUAGE AND LITERATURE  
FACULTY OF UZBEK PHILOLOGY  
DEPARTMENT OF «WORLD OF LITERATURE AND COMPARATIVE  
LITERATURE STUDIES»

## **«SHARQ-U G'ARB: NAVOIY VA GYOTE»**

*mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari  
2023-yil, 21-iyun*

*Articles of international scientific-theoretical conference on*  
**«EAST AND WEST:  
NAVAI AND GOETHE»**

*June 21, 2023*

**Orzигul HAMROYEVA,**  
*filologiya fanlari doktori, dotsent*  
*(ToshDO 'TAU, O'zbekiston)*  
*arguvon87@mail.ru*

**VAZN VA QOFIYAGA ASOSLANUVCHI BADIY SAN'ATLARNING  
QIYOSIY TADQIQI**  
*(Badiiy san'atlarga oid manbalar asosida)*

**Annotatsiya.** Mumtoz matnni poetik tahlilini amalgalashda ilmiy-nazariy yondashuv va tahlilning o'rni beqiyos. Tahlil jarayonidagi muhim jihatlardan biri esa matn mohiyati bilan birga shoir aytmoqchi bo'lgan fikrning qay yo'sinda berilishini tadqiq qilishdir. Shu bois ham mumtoz shoirlarning mahorati nimani tasvirlayotgani bilan emas, qanday tasvirlayotgani bilan belgilangan. Poetik mahoratning tadqiqini amalgalashda «ilm segona» tarkibidagi uch ilm: aruz, qofiya va badiiyat o'zaro uyg'un holda bir butunlikni hosil qiladi. Maqolada ayni uch ilmning bog'liqligi mumtoz poetikaga oid manbalar asosida qiyosiy o'rganiladi, bunda vazn, qofiyani talab qiluvchi badiiy san'atlar asos qilinib olinadi.

**Kalit so'zlar:** qofiya, vazn, saj', tafliqu talfiq, tashri', risola.

**Abstract.** The role of scientific-theoretical approach and analysis in the poetic analysis of the classic text is incomparable. One of the important aspects in the analysis process is to study the meaning of the text along with the way in which the idea the poet wants to express is given. That is why the skill of classical poets is defined not by what they describe, but by how they describe it. In the study of poetic skill, the three sciences of the «second science»: aruz, rhyme and artistry form a whole in harmony with each other. In the article, the connection of these three sciences is comparatively studied on the basis of sources related to classical poetics, in which artistic arts requiring weight and rhyme are taken as a basis.

**Keywords:** rhyme, aruz, saj', tafliqu talfiq, tashri', treatise.

Vazn, qofiya va badiiyat bayt butunligini ta'minlab beruvchi asosiy o'lchovlardir. Bu uch ilm uzviy aloqada bo'lib, bir-birini taqozo qiladi. Poetikaga oid risolalarning ilmi bade'ga bag'ishlangan qismida vazn, qofiya uyg'unligi asosidagi san'atlar atroflicha yoritilgan. «Tarjimon ul-balogs'a», «Mahosin ul-kalom», «Al-mo'jam», «Hadoyiq us-sehr», «Funun ul-balogs'a», «Badoe' us-sanoe'», «Me'yor ul-jamoli», «Badoe' ul-afkor» risolalarida vazn va qofiya asosiga qurilgan san'atlar baytlar misolida tushuntiriladi. Mumosala, saj', tavsif, tag'yir, tashri' san'atlari bevosita vazn, qofiya talabi yuzaga chiqadi.

Qofiya va vaznga asoslanadigan san'atlar orasida **saj'** qadimiy va arab va fors adabiyotida mashhur san'atlardan biridir. Arab olimlarning ko'pchiligi saj'ni nasrdagi qofiya sifatida baholashadi. Ular nasriy parchalar oxiridagi «harflari bir-biriga yaqin (qofiyadosh) so'z»larning kelishi gaplarni bir-biridan ajratib turishini ta'kidlaydilar. Biroq ba'zi olimlar saj' nazmga ham, nasrga ham birdek aloqador

ekanligini ta'kidlashadi. Yusuf Sakkokiy «Miftoh ul-ulum» asarida saj' «nasr bo'laklari oxiridag'i so'zlar she'rdag'i qofiya kabi» bo'lishini aytadi. Yusuf Sakkokiy so'z husnini ko'rsatish maqsadida asjo' qarshisida Qur'oni karim oyat va suralardagi kalomlarga murojaat qiladi. «Miftoh ul-ulum» asarida saj' san'ati asjo' atamasi ostida keltiriladi.

Atoulloh Husayniy saj'ning asosiy xususiyatlari borasida batafsil ma'lumot keltirib, o'zigacha mavjud qarashlarni o'zaro qiyosiy o'rghanadi. Xoja Salmon Ibn ul-Asir saj'ning to'rt sharti borligini ta'kidlaydi: 1. So'z va iboralarning nutqqa ma'qul kelishi 2. So'z tarkibi ma'nosining ochiqligi 3. Shakl ma'noga tobe' bo'lishi 4. Bo'laklarda ma'no takrorlanmasligi. Atoulloh Husayniy Xoja Salmon Ibn al-Asirning fikrlariga qo'shilmaydi. Olimning nazdida saj' nutq husnini bezovchi asosiy tasvir vositasidir. Saj'ning nafosatini ta'minlovchi ikki sharti bor: 1. Bo'laklar (ichki qofiya tarkibidagi lafzlar) uzun bo'lmasligi 2. Ichki qofiya sifatida keltirilgan so'zlar shakli va ma'nosida tenglik bo'lishi.

Atoulloh Husayniy saj' shartlari orasida lafzlarning o'zaro tengligini asosiy shart ekanligiga ishora qilib, bu so'zlar ikki so'zdan oshmasligi eng maqbul holat ekanligini ta'kidlaydi. Saj'ning bu xususiyati uning martabasini belgilab beradi. Bir, ikki lafzdan iborat saj' eng yuqori martabada, ikkitadan ortsa, o'rta yoki undan ham ortib ketsa, tuban martaba ekanligi ko'rsatiladi. Saj'dagi ortiqchalik bayt yoki misra mohiyatiga putur etkazishi tabiiy holat. Atoulloh Husayniy kalomdagagi saj'ni mahbub yuzidagi xolga o'xshatadi. [1:104] Agar u ko'paysa, husn-u latofatni yo'q qiladi.

Ajam oimlari ham bu borada ikki toifaga bo'linadilar: saj'ni nasrga xos ekanligini e'tirof etguvchilar va saj' nasr va nazmga birdek aloqador ekanligini ta'kidlovchi oimlar.

Saj' san'atini tushunishda, izohlashda ixtiloflar bo'lganidek, uning turlari borasida ham turlicha qarashlar mavjud. Atoulloh Husayniy ajam oimlarining ba'zilari saj'ning 3 turi: saj'-i mutavoziy, saj'-i mutarraf va tarsi' kabi turlarini tan olishlarini e'tirof etib, ularni birma-bir izohlaydi, baytlar misolida tushuntiradi. O'zining tanqidiy munosabatini bildiradi. Tabiiyki, bu o'rinda saj' san'ati borasidagi ixtilofiy qarashlar kabi uning turlari borasida ham oimlar orasida fikriy ayrichalik ko'zga tashlanadi. Xususan, ba'zi oimlar saj'ning faqat nasrga oidligini ta'kidlab, tarsi'ni alohida san'at sifatida baholashadi. Ba'zi oimlar esa tarsi'ni saj'ning bir turi sifatida e'tirof etadilar. Atoulloh Husayniy bu kabi bahsli o'rnlarda o'zigacha yaratilgan mumtoz poetikaga oid manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga munosabatini bildirib o'tadi. Ba'zi o'rnlarda ularning fikrini rad etadi. Rashididdin Vatvot, Ahmad Taroziy saj'ning uch: saj' ul-muvozana, saj' ul-mutarraf va saj' ul-mutavoziy turlarini farqlab tushuntiradi [5:143]. Husayn Voiz

Koshify esa saj'ning uch turiga qo'shimcha to'rtinchi: sa'ji munfard turini keltiradi [4:100].

**Saj'i mutavoziy** nasrdagi oxirgi fosilaning qofiya va vazn jihatidan muvofiqligiga asoslanishi aytildi. «Tavoziy» so'zi lug'atda «teng bo'lmoq» degan ma'noni anglatadi. Demak, saj'ning bu turida fosilalar qofiya va vaznda o'zaro teng bo'lishi kerak. Bu borada uch turdag'i qarashlar mavjud:

1. Barcha fosilalarning oxirgi harfi va vazni muvofiq bo'ladi.

*Do 'ston, vafoe nadidam, har zamon jafoe kashidam.*

Namunadagi *do 'ston – har zamon, vafoe – jafoe, nadidam – kashidam* so'zlar o'zaro qofiyadosh so'z sifatida ham vazn, ham qofiya jihatidan muvofiqliqdir.

Yoki:

*Yor ahlast, kor sahlast.*

2. Barcha so'zlarda ham qofiya va vaznga muvofiq so'zlar kelmaydi. [1: 63]

*Solikona sabil-i inqito' va aloyiq po'y va muhaqqaqona dalil-i ittilo' barhaqoyiq jo'y.*

Atoulloh Husayniy keltirgan ushbu nasriy parchada barcha so'zlar o'zaro qofiya jihatidan mos tushgan, biroq vazniy jihatidan(hijolar miqdori) *solikona – muhaqqaqona, aloyiq – barhaqoyiq* so'zlar mos tushmagan.

3. Nasriy parchadagi oxirgi fosilagina qofiya va vazn jihatidan mos tushadi.

*To poy dar doman-i qanoat nakashiy, choshniy-i sharbat-i ozodiy nachashiy.*

Saj'i mutavoziyining uch turi borasida olimlar o'rtasida fikriy ixtiloflar mavjud. Saj'i mutavoziy sifatida keltirilgan yuqoridagi ikki turni olimlar tarsi' ekanligiga ishora qiladi. Chunki bu olimlar tarsi'ni alohida she'riy san'at sifatida emas, saj'ning turi sifatida baholashgan. Saj'i mutavoziyining ikki shakli baytdagi to'liq ichki qofiyaga asoslanishi tarsi' san'ati xususiyati bilan bir xil bo'lgani bois bu shakllarni saj' emas, tarsi' san'ati sifatida berish to'g'ridir.

Saj'i mutavoziyining har uchala shakli nasrga asoslangan bo'lib, bir guruh olimlar saj'ning bu turini nazmda ham uchratish mumkinligini ta'kidlaydilar.

Dar ro'yi bulbul har **sahar** // xandidan-i gulro **nigar**, //

– - V - // - - V - // - - V - // - - V -

Boshadki bo ahl-i **nazar** // bigshoyad on tung-i **shakar**. //

– - V - // - - V - // - - V - // - - V -

Atoulloh Husayniy ushbu baytni saj'i mutavoziy san'ati ishlatilgan baytga namuna sifatida keltiradi. Rajazi musammani solim vaznida yozilgan ushbu bayt to'rt bo'lakka bo'linib, har ikki rukndan so'ng ichki qofiya keltirilgan.

**Nihon** karda ba yoqt lab-u **dahon**,

V - - V // V - - V // - V ~

**Ayon** karda ba iqdi kamar **miyon**.

V - - V// V - - V// - V ~

Qaribi makfufi maqsur vaznida yozilgan ushbu baytning boshlang‘ich va oxirgi so‘zлari saj’ asosida ohangdorlikni ta’minlab bergan.

Ahmad Taroziy saj’i mutavoziyning birinchi misradagi so‘zlar ikkinchi misradagi so‘zlar bilan harf va vaznda muvofiq bo‘lishini ta’kidlaydi. Bu holat ikki bayt orasida ham bo‘lishi mumkinligiga ishora qilib, quyidagi baytni keltiradi.

*On ki moli xazoyini geti,  
Hast bo dasti judi u bisyor.  
Rangi kashafi sarori gardun,  
Nist dar pishi tab’iu dushvor.*

«Funun ul-balogs‘a»da saj’ning mutavoziy turi arab tilidagi matn va Qur’oni karim oyatlari misolida tushuntiriladi:

*Va-l-a’diyati zabhan fa-l-muriyati qadhan, fa almug ‘oroti subhan, faasarna bihi naq’an favasatna big ‘i jam’an.*

Saj’ning keyingi turi **saj’-i mutarraf** bo‘lib, bu borada ham olimlar ikki toifaga bo‘linib, nasr va nazmdagi ko‘rinishlariga qarab fikrlarda tafovutlar ko‘zga tashlanadi. Poetikaga oid deyarli barcha manbalarda saj’i mutarraf sifatida nomlangan saj’ning bu turi «Funun ul-balogs‘a»da **al-saj’au-t-tarafa** nomi bilan keltirilgan. Atoulluoh Husayniy bu ikki turdagи olimlarning birinchi toifasi saj’i mutarrafni faqat nasrga xos deb da’vo qiluvchilar, ikkinchi toifa nafaqat nasrda, nazmdagi ichki ohangdoshlik ham saj’i mutarrafga asos bo‘lishini qo‘llab-quvvatlovchi toifa sifatida keltiradi.

Saj’i mutarrafning o‘ziga xos xususiyati shundaki, bunda bayt yoki misradagi ichki qofiyalar faqat tugash harflari jihatidan (qofiya) ohangdosh bo‘lib, vazn jihatidan mos tushmaydi. «Mutarraf» so‘zining ma’nosи ham bu xususiyatga mos tushadi. «Mutarraf» – «atrofi, uchlari bir rangda bo‘lib, qolgan qismi turli rangda bo‘lgan narsa»dir.

*Harki, tarki manosibu molu avqof kunad, tavonadki, dil az zang-i kudurat sof kunad [1:64].*

Nasriy parchadagi *avqof* – *sof* so‘zлari faqatgina qofiya jihatidan mos tushgan.

*Jon ki gulgун yuzungadur Majnun,  
Qil oni shod, ey bo ‘yi shamshod.*

Baytdagi *shod* – *shamshod* so‘zлari misrada ichki qofiyadoshlikni yuzaga keltirgan bo‘lib, vazn jihatidan, hijolarning tengligi jihatidan farq qiladi.

*Oradat fath dar makoni imkon,  
Dehadat kuh barqarori qaror. [5:145]*

Ushbu bayt misralari tarkibida o‘zaro mustaqil qofiyalangan so‘zlar mavjud: birinchi misrada *makon* – *imkon*; ikkinchi misrada *barqaror* – *qaror* so‘zлari saj’i

mutarraf sifatida vaznda emas, harflar miqdorida emas, faqatgina qofiya jihatidan mos tushgan.

Husayn Voiz Koshifiy ham saj'i mutarrafda qofiyadosh so'zlar vaznida ixtiloflar bo'lishini ta'kidlaydi.

*Nisor poy tu kardim jumla mol-u manol,  
Fido-i ro 'yi tu kardim jumla bud-u nabud.*

«Badoe' ul-afkor»da keltirilgan ushbu baytdagi asosiy qofiya bilan ulanib ketgan ichki qofiyalarda ohangdoshlik – qofiya mavjud bo'lsa-da, vaznda (sabab va vata) mos kelmaslik holati uchraydi.

Saj'ning vazn bilan bog'liq turi saj'i mutavozin bayt yoki misralardagi ma'lum so'zlarning vazn jihatidan mutanosib, harflar jihatidan (qofiya) nomutanosibligiga asoslanadi. Poetikaga oid risolalarda saj'i mutavozin, «Funun ul-balogs'a»da saj'i muvozana nomi bilan keltiriladi.

*Har safar oy yuzung ko 'rub, xasta jonim etar farah,  
Har kecha yodingiz bila xasta ko 'ngul qilur kalak [5: 143]*

Ushbu baytdagi *jonim* – *ko 'nglum, etar – qilur, farah – kalak* so'zlari vazn jihatidan mos tushgan.

*Agar huzur xohiy qanoat boyad.*

Nasriy parchadagi *xohiy – boyad* so'zlari vazniy jihatdan mutanosib.

*Ba qavl-i badandeshu ahl-i g'araz,  
Munosib naboshad zi dono g'azab.*

Atoulloh Husayniy lafzlarning vazniy tengligiga baytdagi barcha so'zlarda rioxal qilinsa, baytning badiiy qimmatini oshishini ta'kidlaydi.

*Shud ba ko 'yash on raqib-i ro 'siyah,  
Rah ba gulshan yoft oxir gulxaniy.*

Rashididin Vatvot saj'i mutavozin nasrda emas, faqat nazmda bo'lishini ta'kidlaydi. Saj'ning bu turi shoirlar orasida **muvozana** san'ati sifatida ham keltiriladi. Atoulluoh Husayniy Rashididdin Vatvot bilan saj'ning bu turi borasida bahsga kirishadi. Rashididin Vatvot muvozana san'ati 2 bayt orasidagi so'zlarda ham bo'lishi mumkin degan fikrni ilgari surib, quyidagi baytni keltiradi:

*Onki mol-i xazoyin-i getiy,  
Hast bo jud-i dast-i o' bisyor.  
V-onki, kashf-i saroyir-i gardun,  
Nest dar pesh-i o' dushvor.*

Rashididdin Vatvot 2- va 4-baytdagi so'zlar muvozana san'atiga asos bo'lganini ta'kidlaydi. Atoulloh Husayniy esa muvozana san'atining asosi har bir so'z o'z jufti bilan qofiya tarkibidagi raviy bilan muxolif(turlicha) bo'lishi shartligini, ayni o'rinda esa baytdagi so'zlarda raviy o'zaro muvofiq, shuning uchun ham bu o'rinda muvozana san'ati mavjud emasligini isbotlashga harakat

qiladi. Chindan ham, *hast-nest* so‘zlaridagi «*t*» undoshi raviy sifatida mutanosiblikni yuzaga keltirganini ko‘rish mumkin. Bu o‘rinda Atolloh Husayniyning fikri to‘g‘ri. Chunki muvozana san’atining asosiy xususiyati bayt misralaridagi so‘zlarning vazniy tengligiga asoslanadi, qofiya jihatidan esa so‘zlar ohangdosh bo‘lishi kerak emas. Rashididdin Vatvot keltirgan baytning ikkinchi va to‘rtinchi misralardagi ba’zi so‘zlar vazn va qofiya jihatidan mos tushgan.

Biroq shuni alohida ta’kidlash kerakki, saj’i muvozanani saj’ning turi sifatida keltirish saj’ san’ati qonuniyatiga u qadar mos tushmaydi. Chunki muvozana san’atida bayt misralaridagi so‘zlarda qofiya, saj’ san’ati asoslanadigan ichki qofiya bo‘lmaydi. Muvozana so‘zlarning vazniy tengligiga asoslanadi.

Vazn va qofiyaga soslanuvchi badiiy san’atlardan biri **mumosalal** san’atidir. Ba’zi olimlar bu san’atni alohida san’at sifatida emas, balki muvozana san’atining bir turi sifatida qarash kerak ekanligiga ishora qiladi. Biroq olimlarning bir guruhi mumosalani alohida san’at sifatida baholashadi. Mumosalal bayt yoki nasrdagi parchada ikki so‘z o‘rtasida vazn va qofiyalanishda yoki faqat vaznda o‘xshashlik bo‘lishiga asoslanadi.

*Uzor-i nigoram bo ‘ston-i gulast,  
Baru har taraf xol chun bulbulast.*

Atoulloh Husayniy keltirgan ushbu baytdagi so‘zlar yaxlitligicha vazn va qofiya jihatidan mutanosib emas. «Badoe’ us-sanoe»da keltirilgan keyingi namunada esa bayt misralaridagi ba’zi so‘zlar qofiya va vazn jihatidan, ba’zi so‘zlar esa qofiya jihatidangina mos tushgan, mumosalat (o‘xshashlik) bo‘lgan.

*Namud ro‘y ba man yoru diyda hayron shud,  
Rabud hush zi tan yoru ofati-i jon shud.*

Baytdagi *namud – rabud* va *man – tan* so‘zlarida qofiya, vazn, *ro‘y ba – hush zi* so‘zleri vazn, asosiy qofiya sifatida keltirilgan *hayron – jon* so‘zleri esa qofiya jihatidan mutanosib.

Baytlardagi misralarning o‘zaro ichki qofiyaga asoslanishi asosida yuzaga chiqadigan badiiy san’atlardan yana biri **tashri’** san’atidir. Ba’zi olimlar uni **tarshih, zulqofiyatayn** ham deydilar. Bu san’atning o‘ziga xosligi shundaki, shoirlar she’rni ikki yoki undan ortiq qofiya asosida tuzadilar, ularning har birida to‘xtalinsa ham, yangi bayt hosil bo‘ladi, she’rning mohiyati buzilmaydi. Atoulloh Husayniy bu san’atni *tashri’* nomi bilan keltiradi.

*Chu kuniy bag‘olat guzare so‘yi mo,  
Binishin qadare, ruhi xud binamo.  
VV – / VV – / VV – / VV -*

*Hama kas dilu jon bidehadki xo ‘rad,  
Zi labat shakare, birason **hamaro**.  
VV – / VV – / VV – / VV –  
Sanamo, zi sukkoni darat chu mane,  
Nabuvad digare ba tu az **vafo**.  
VV – / VV – / VV – / VV –*

Ushbu she’r mutadoriki musammani maxbun vaznida yozilgan, ruknlar sakkiz marotaba failun/failun/failun/failun shaklida kelgan. Asosiy qofiya: *so ‘yi mo – binamo – hamaro – vafo*. Agar birinchi qofiyada to‘xtalinadigan bo‘lsa, musaddas shaklga ega bo‘ladi, ya’ni misra so‘ngidagi bir rukn (failun) keyingi misraning boshiga o‘tkaziladi:

*Chu kuni bag ‘olat **guzare**,  
So ‘yi mo, binishin **qadare**.  
VV – / VV – / VV –*

*Hama kas dilu jon bidehad,  
Ki, xo ‘rad zi labat **shakare**.  
VV – / VV – / VV –*

*Sanamo zi sukkoni darat,  
Chu mane nabuvad **digare**.  
VV – / VV – / VV –*

Musaddas shakldagi baytlarni birlashtirib turuvchi asosiy qofiyalar sifatida esa *guzare – qadare – shakare – digare* so‘zлari keltirilgan. Bu kabi san’atning o‘ziga xosligi shundaki, tushib qolgan bo‘laklar yig‘ilsa, o‘sha vazndagi bayt hosil bo‘ladi. Atoulloh Husayniy buni ixtiro sifatida baholaydi. Yuqoridagi baytlarda tushib qolgan bo‘laklarni birlashtiramiz:

*Ruhi xud bigusho birason,  
VV – / VV – / VV –  
Hamaro ba navoz-i **vafo**.  
VV – / VV – / VV –*

Misralardagi ichki qofiyalar alohida vaznni hosil qila oladi.

*Ba davr-i lola-yi hamro biyo, jono, so ‘-yi sahro,  
Bikash xush sog‘ar-i sahbo, barafro ‘zo rux-i zebo.  
V --- // V --- // V --- // V ---*

*Shudim oxir zi hijronat dilafsurda, biyo injo,  
Uzor-i otashin binmo, fikan otash ba jon-i mo.  
V --- // V --- // V --- // V ---*

*Makun chandin tu istig‘no, mapushon rux zi mo, jono,*

*Niqob zi rux fikan bolo, maso ‘z az g‘am dil-i moro.*

**V---** // **V---** // **V---** // **V---**

Ushbu g‘azal hazaji musammani solim vaznida yozilgan. Birinchi misrada *hamro – sahbo* so‘zlari birinchi qofiya, *jono – barafro* ‘zo so‘zlari ikkinchi qofiya, ikkinchi misradagi *sahro – zebo* so‘zlari uchinchi qofiya sifatida kelgan. Baytdagi har bir qofiya she‘r vaznini o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Ayni holatda musamman shaklda turgan baytda ikkinchi qofiyadan so‘ng to‘xtalinsa, musaddas shaklli vazn hosil bo‘ladi.

*Ba davr-i lola-yi hamro biyo, jono,*

*Ba so ‘-yi sahro, bikash xush sog‘ar-i sahbo!*

**V---** // **V---** // **V---**

*Shudim oxir zi hijronat dilafsurda,*

*Biyo injo, uzor-i otashin binmo,*

**V---** // **V---** // **V---**

*Makun chandin tu istig‘no, mapushon rux*

*Zi mo, jono, niqob zi rux fikan bolo!*

**V---** // **V---** // **V---**

Baytlardagi tushib qolgan ruknlar birlashtirilsa, qofiya, vazn va ma’no jihatidan o‘zaro mos tushib yangi bir bayt hosil bo‘ladi.

*Barafro ‘zo rux-i zebo: fikan otash*

*Ba jon-i mo, maso ‘z az g‘am dil-i moro.*

**V---** // **V---** // **V---**

Musaddas shaklli ushbu g‘azalni birinchi qofiyada to‘xtab, o‘qisak, uning vazni murabba’ga o‘zgaradi.

*Ba davr-i lola-yi hamro*

*Biyo, jono, so ‘-yi sahro!*

**V---** // **V---**

Atoulloh Husayniy tashri’ san’ati qo‘llangan bunday baytlardan yangi san’at ixtiro qilish mumkinligini aytadi [1:64]. Musamman shaklli bayt binichi misrasining oxirgi ruknini ikkinchi misra boshiga ulasa, ikkinchi misra oxirgi ruknini uchinchi misra boshiga ulasa, vazn, qofiya saqlangan holatdagi yangi she‘r paydo bo‘ladi.

*Ba davr-i lola-yi hamro biyo, jono,*

*So ‘-yi sahro, bikash xush sog‘ar-i sahbo.*

**V---** // **V---** // **V---**

*Barafro 'zo rux-i zebo, shudim oxir  
Zi hijronat dilafsurda, biyo injo.  
V---// V---// V---*

*Uzor-i otashin binmo, fikan otash  
Ba jon-i mo, makun chandin tu istig 'no  
V---// V---// V---*

Atoulloh Husayniy bu san'at turini *tafliq* *talfiq* deb nomlashni taklif qiladi. Chunki «tafliq» so‘zining ma’nosи «yormoq»dir, «talfiq» esa «yig‘moq»dir. Ko‘rinib turibdiki, bu san'at turida juzvlarni bir-biridan ajratib, boshqa biriga ulash asosida yangi bir bayt hosil qilinadi. Olimning ta’kidlashicha, ajam olimlari bu san'atga u qadar katta e’tibor bilan qaratmaganlar. Shuning uchun ham ajam adabiyotida bu san'at asosida yozilgan qasida yoki masnu’ she’r keltirilmagan. Tashri’ so‘zi lug‘atda «Qayta-qayta sug‘ormoq» degan ma’noni anglatadi. Atoulloh Husayniy bu san'atda she’rni qayta-qayta qofiyaga solish asos qilib olingani uchun ham ayni ma’noda qo‘llanganiga ishora qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, muvozana, tarsi’ kabi alohida ajralib chiqqan badiiy san'atlar dastlab saj’ san'atining tarkibiy qismi sifatida tadqiq etilgan. Hatto ba’zi olimlar bu ikki san'at turini bugungi kunda ham alohida san'at sifatida qabul qilishmagan.

### **Adabiyotlar:**

1. Атоуллоҳ Ҳусайнӣ. Бадойиъ ус-саноиيъ (Форсчадан А.Рустамов таржимаси) –Т. 1981.
2. Jalolovna H.O. CORRELATION BETWEEN THE SCIENCE OF RHYME AND THE SCIENCE OF BADE'. SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY, 181.
3. Jalolovna H.O. CLASSIFICATION OF FINE ARTS IN" HADOYIQ US-SIKHR. SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY, 47.
4. Koshifӣ Kamoluddin Husayn Voizi Sabzavorӣ. Badoe'u-l-afkor fī sanoe'i-lash'or. Virosta va guzordai Mirqaloluddini Kazzozӣ. – Tehron: Nashri markaz, 1369.
5. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Fununu-l-balogs'a. (Nashrga tayyorlovchilar H.Boltaboyev, J.Jo‘rayev) – T.: MUMTOZ SO‘Z, 2016.
6. Рашид ал-Дин ал-Батват. Ҳадойик ус-сихр фи дақойик уш-шеър. – М.: Наука, 1985.